# NAVOIY VILOYATI G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMINING
# Q A R O R I

G‘ozg‘on shahar, Amir Temur k 1.

2022 йил «14» феврал 16-5-210-Q/22 Ғозғон шаҳри хокимлиги

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardati “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni hamda Navoiy viloyat hokimining 2022 yil 10 fevraldagi 30-5-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

Keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni hamda Navoiy viloyat hokimining 2022 yil 10 fevraldagi 30-5-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan **“Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari”** tamoyiliga asosan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o‘rinlarda - Taraqqiyot strategiyasi) va uni **“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda - Davlat dasturi) tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

3. Quyidagilar:

G‘ozg‘on shahrida “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” ijrosini ta’minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda - Kompleks chora-tadbirlar dasturi) 1-ilovaga;

G‘ozg‘on shahrida “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” ijrosini ta’minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish bo‘yicha shahar ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda - Ishchi guruhi) tarkibi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**4. Shahar ishchi guruhiga:**

Taraqqiyot strategiyasiga kiritilgan tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va monitoring qilish, shuningdek, uni 2023-2026 yillarda amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarining tayyorlanishini muvofiqlashtirish;

hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturi hamda Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘iicha faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta’minlash topshirilsin.

**5. G‘ozg‘on shahar hokimining o‘rinbosarlari, hokimlik boshqarma va bo‘limlari boshliqlari, manfaatdor boshqarma va tashkilotlar rahbarlari:**

uch kun muddatda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan tegishli chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;

Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlar, shaharda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish sohasidagi tegishli tadbirlarning samarali va o‘z vaqtida ijro etilishini ta’minlash;

Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan ustuvor yoʻnalishlarning hamda hududiy dasturlarning bajarilishi toʻgʻrisidagi umumlashtirilgan maʼlumotlarni har oyning 25 sanasiga qadar Ishchi guruhiga taqdim etish, Davlat dasturi hamda Kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosini har oyda xalq deputatlari mahalliy Kengashlar yigʻilishlarida muhokama qilib borilishini tashkil etish;

barcha boʻgʻindagi davlat boshqaruvi organlariga kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilinishi, oʻzlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijro etilishi, ijtimoiy soʻrovlar va jamoatchilik muhokamalarini oʻtkazish natijalaridan kelib chiqib, mahallalar kesimida oʻz tuzilmalarining faoliyati boʻyicha Dasturlar ishlab chiqilib, ijro holati yuzasidan ommaviy axborot vositalarida muntazam eʼlon qilib borilishini taʼminlash topshirilsin.

**6. Shahar hokimining oʻrinbosarlari (O.Raxmatov, U.Ergashev, M.Mansurov), tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga:**

mahallalarda yangi joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha shahar hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yoʻlga qoʻyilishini taʼminlash;

mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha shahar hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani oʻrganish va tahlil qilish natijasiga koʻra ularni rivojlantirish boʻyicha “yoʻl xaritalari”ni ishlab chiqilishini taʼminlash topshirilsin.

**7.** Shahar hokimining oʻrinbosari M.Mansurovga shahar xalq taʼlimi boʻlimi (A.Xoʻjaqulov), shahar Aholi bandligiga koʻmaklashish markazi (Sh.Sharipov) bilan birgalikda Taraqqiyot strategiyasida taʼlim sifatini oshirish boʻyicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda yangi oʻquv oʻrinlarini yaratish va maktab oʻquvchilarini kasb-hunarga oʻqitish boʻyicha tizimli choralar koʻrib borish topshirilsin.

**8. Shahar hokimining barcha oʻrinbosarlari, korxona va tashkilot raxbarlariga:**

2022-2026 yillarga moʻljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha dasturlar asosida har yili barcha shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur oʻrgangan holda mahalalar kesimida taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqish;

har chorak yakuni boʻyicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridagi vazifalarning bajarilishi yuzasidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga hisobot berib borish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga

yo‘naltirilgan muhim loyihalar hududlarning talablari va mahalliy tashabbuskorlarning takliflarini inobatga olgan holda mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinganidan keyin qabul qilinishini ta’minlash;

har bir tarmoq bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berib borishini ta’minlash topshirilsin.

**9.** Shahar hokimining o‘rinbosarlari, korxona va tashkilot rahbarlari Davlat dasturi hamda Kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosini ijrosini ta’minlash borasida o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda bandma-band tahlil qilib, amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy ko‘rib chiqsin.

**10.** Shahar hokimligi axborot xizmati (B.Amonboev), “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasi taxririyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun-mohiyatini hamda Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

**11.** Mazkur qaror ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Shahar hokimi** **A.Bazarov**

Ғозғон шаҳар ҳокимининг
2022 йил 14 февралдаги
16-5-210-Q/22-сон қарорига
1-илова

# G‘ozg‘on shahrida “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi”ning ijrosini ta’minlash bo‘yicha KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR DASTURI

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH** *(Mas’ullar – U.Ergashev, F.Qo‘shakov, D.Egamova)* | | | | | | | |
| **1-maqsad. Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish.** | | | | | | | |
| 1. | **1-band:** **Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda** mahallalarning **vakolatlarini kengaytirish**. | 1. Mahallalar tomonidan hal qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning ro‘yxatini tuzish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.<br>2. Mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasiga takliflarni Viloyat hokimligiga taqdim qilish. | 2022 yil may | Hisob-kitoblarga asosan | Shahar hokimi o‘rinbosarlari **O.Raxmatov**, **U.Ergashev** | Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi **U.Ergashev,** tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | **2-band:**<br>Mahalladan turib **barcha davlat organlariga murojaat** qilish hamda ularning rahbarlari bilan **muloqot qilish tizimini yaratish**. | 1. Aholining davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish hamda ularning rahbarlari bilan videoaloqa orqali muloqotni bosqichma-bosqich tashkil etish. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining mahallalar bilan samarali aloqalarini yo‘lga qo‘yish.<br>2. Davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.<br>3. Mahalla faoliyatida qog‘ozbozlikni kamaytirish maqsadida taqdim etilishi lozim bo‘lgan hisobotlar xatlovdan o‘tkazilib, keskin kamaytirish hamda ularning tugal ro‘yxatini tasdiqlash, shuningdek, ularni to‘ldirish va taqdim etish jarayonini to‘liq raqamlashtirish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasiga takliflarni Viloyat hokimligiga taqdim qilish. | 2022 yil sentyabr | Hisob-kitoblarga asosan | Shahar hokimi o‘rinbosari **U.Ergashev** | Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi **D.Egamova,** tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 3. | **4-band:**<br>Mahallalarning jamoatchilik bilan aloqalarini kuchaytirish choralarini ko‘rish. | Shahar Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va messendjerlarda mahalla yuzasidan bildirilayotgan tanqidiy axborotlar bilan ishlash, shu jumladan ko‘tarilayotgan muammolarni hal etishning samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish, tegishli tashkilot, korxonalar va idoralar bilan o‘zaro axborot almashish tizimini yo‘lga qo‘yish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2022 yil iyun | – | Shahar hokimining o‘rinbosari **U.Ergashev** | Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi **U.Ergashev,** Shahar hokimligi matbuot kotibi **(B.Amonboev)** |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | **Amalga oshirish xarajatlari** (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | **6-band:**<br>Mahallalarning **“o‘sish nuqtalari”** va ularda yashovchi aholining **tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan** kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, **faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash** tizimini kuchaytirish. | 1. Mahallada **bir turdagi ixtisoslashuvda faoliyat yuritayotgan aholini** qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.<br>2. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha hokim yordamchilarining asosiy vazifalaridan biri sifatida yil davomida mahallani o‘rganish va tahlil qilish natijasida uni **o‘rta va qisqa muddatda rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish** amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2022 yil avgust | Hisob-kitoblarga asosan | Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **O.Raxmatov,** Shahar hokimi o‘rinbosari **U.Ergashev** | Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi **S.O‘rinov,** Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| **II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH**<br>*(Mas’ullar – Sh.Sharapov, B.Isoqov, A.Muxitdinov va S.Safarov)* | | | | | | | |
| **17-maqsad. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish** | | | | | | | |
| 5. | **62-band:**<br>Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda **jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish**, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda **zamonaviy usullardan** foydalanish. | 1. Murojaatlar bilan ishlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan holda **aholi uchun uyidan turib, tunu-kun to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish** imkoniyatini yaratish.<br>2. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish institutini isloh qilish va jinoyat haqidagi xabarlarni ro‘yxatga olish jarayonini to‘liq raqamlashtirish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022 yil oktyabr | – | Shahar hokimligining Bosh yuristkonsulti **Sh.Sharapov** | Shahar ichki ishlar bo‘limi **A.Muxitdinov,** shahar prokuraturasi **B.Isoqov,**<br>tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| **19-maqsad. Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish** | | | | | | | |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6. | **68-band:**<br>**Bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish**, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta’minlash. | 1. Davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga **bepul yuridik yordam**ni jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha ham ko‘rsatish tizimini joriy etish.<br>2. Sog‘liqni saqlash va FHDYo organlarining axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish va moddiy-texnik jihatidan takomillashtirish.<br>3. Notariat institutiga oid barcha qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va yagona qonunga birlashtirish.<br>4. Notariat faoliyatini **yanada raqamlashtirish** va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.<br>5. FHDYo va notariat organlari tomonidan davlat xizmatlarini soddalashtirilgan tartibda ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022 yil dekabr | Hisob-kitoblar asosida (byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan) | Shahar hokimligining Bosh yuristkonsulti **Sh.Sharapov** | Adliya bo‘limi **S.Safarov** |
| **20-maqsad. Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish** | | | | | | | |
| 7. | **69-band:**<br>Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish. | Aholi orasida huquqiy targ‘ibot, qabul qilinayotgan **normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish**ni xususiy sektorni jalb qilgan holda yangi tamoyillar asosida tashkil etish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | 2022 yil davomida | – | Shahar hokimligining Bosh yuristkonsulti **Sh.Sharapov** | Adliya bo‘limi **S.Safarov** |
| **III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASH**<br>*(Mas’ullar – O.Raxmatov, A.Asrorov*) | | | | | | | |
| **21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 barobar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish** | | | | | | | |
| 8. | **71-band:**<br>Har bir tuman byudjetining kamida **5 foizini “Fuqarolar byudjeti”** dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish. | Shahar byudjeti parametrlarida hududiy ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun ajratiladigan mablag‘larning kamida **50 foiz**i **“Ochiq byudjet” axborot portali** orqali **jamoatchilik fikri asosida** aniqlangan ichki yo‘llarni ta’mirlashga yo‘naltirish tartibini joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022 yil fevraldan boshlab | Shahar byudjeti hisob-kitob asosida **0,9 mlrd. so‘m** | Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **O.Raxmatov** | Moliya bo‘limi **B.Qobilov**, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| **22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish** | | | | | | | |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. | **88-band:**<br>Yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyani yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilish. | **Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalariga** qatnashish.<br>Bunda:<br>hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida hududlardagi tarmoqlar va yirik korxonalari tomonidan asosiy faoliyat turi bo‘yicha kooperatsiya asosida o‘zlashtirish tavsiya etiladigan tovarlar turlarini namoyish etish;<br>yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida zarur qurilish materiallari, metallokonstruksiya va uskunalar, tez ishdan chiquvchi va doimiy foydalaniladigan butlovchi qismlarni o‘zlashtirish va sotib olish bo‘yicha mahalliy korxonalar bilan shartnomalarni imzolash. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga takliflarni Viloyat hokimligiga kiritish | 2022 yil fevral | – | Shahar hokimi o‘rinbosari **A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi **Sh.Abduqodirov** |
| **28-maqsad: Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 900 mln AQSh dollariga yetkazish** | | | | | | | |
| 10. | **118-band:**<br>**Eksportchi korxonalar faoliyatini** qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish. | **2022-2026 yillar**ga mo‘ljallangan Eksportni rivojlantirish dasturi doirasida 2022 yilda eksport hajmini **1.5 mln.dollar**ga yetkazish. Bunda**:**<br>eksport tarkibida **tayyor va yarim tayyor mahsulotlar** ulushini **50 foiz**ga yetkazish;<br>mavjud **xomashyo resurslarini** qayta ishlash quvvatlarini oshirish hisobiga eksport tarkibidagi ulushini **34 foiz**dan **24 foiz**gacha kamaytirish;<br>**xizmatlar** eksport hajmlari oshirish. | Shahar amaliy chora-tadbirlar loyihasini tayyorlash va tasdiqlash. | 2022 yil davomida | – | Shahar hokimining o‘rinbosari- **A.Asrorov** | Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi, sektor rahbarlari |
| 11. | **119-band:**<br>Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish. | Har bir tarmoq kesimida hududiy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash, shu jumladan:<br>qurilish materiallari eksportini **1,5 mln AQSh dollari**ga; | Viloyat komissiyasi bayoniga takliflarni Investitsiya va tashqi savdo boshqarmasiga kiritish | 2022 yil mart | – | | Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi, sektor rahbarlari |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 12. | **121-band:** **Xususiy sektorning eksportdagi ulushi**ni oshirish. | 1. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan eksportchi korxonalarga kompensatsiya va kafilliklarni **yirik eksportchi korxonalarga** nisbatan ham tatbiq etish. | Viloyat amaliy chora-tadbirlariga takliflarni Investitsiya va tashqi savdo boshqarmasiga kiritish | 2022 yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan | Shahar hokimining o‘rinbosarlar- **O.Raxmatov, A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi |
| | | 2. Hunarmandlar mahsulotlarini **jahon elektron savdo maydonchalariga** chiqarish va reklama qilish xarajatlarini Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari hisobidan qoplab berish. Hunarmandlarga alohida imtiyoz bergan holda, xalqaro pochta jo‘natmalari tarif stavkalarini qayta ko‘rib chiqish. | Viloyat amaliy chora-tadbirlariga takliflarni Investitsiya va tashqi savdo boshqarmasiga kiritish | 2022 yil | Hisob-kitoblarga asosan | | Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi, |
| 13. | **122-band:** **E**ksportchi korxonalarga ko‘rsatilayotgan **tashkiliy va moliyaviy yordam berish** tizimini takomillashtirish. | Eksportchi korxonalarning **transport xarajatlarining bir qismini qoplab berish** tizimini qo‘shni davlatlarga eksport qilingan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlarga nisbatan ham qo‘llash.<br>Bunda, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ro‘yxatini TIF tovar nomenklaturasi kodlari kesimida shakllantirish. | Viloyat komissiyasi bayoniga takliflarni Investitsiya va tashqi savdo boshqarmasiga kiritish | 2022 yil may | Hisob-kitoblar asosida | Shahar hokimining o‘rinbosari- **A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi**,** manfaatdor korxona va tashkilotlar |
| 14. | **124-band:** Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni **xorijiy davlatlarga chiqarishda ko‘maklashish tizimini** takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi **7 tadan 11 taga**, tovarlar eksport geografiyasini kengaytirish. | 1. Dunyoning yetakchi davlatlarida har yili bo‘lib o‘tadigan yirik xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar ishtirokini ta’minlash. | Shahar amaliy chora-tadbirlar loyihasini tayyorlash va tasdiqlash. | 2022 yil mart | Hisob-kitoblar asosida | Shahar hokimining o‘rinbosari- **A.Asrorov** | Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi |
| | | 2. Tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali eksport hajmlari va geografiyasini kengaytirish. | Ikki va ko‘p tomonlama muzokaralar | 2022 yil | – | Shahar hokimining o‘rinbosari- **A.Asrorov** | Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 15. | **125-band:** **“Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti”** g‘oyasi asosida **3 ta** eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash. | 1. “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturini asosida **3 ta** eksportchilarni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash va ularni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish. | Viloyat qarori loyihasiga takliflarni Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasiga kiritish | 2022 yil iyun | Hisob-kitoblar asosida | Shahar hokimining o‘rinbosari **A.Asrorov** | Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi**,** Moliya bo‘limi **B.Qobilov,** manfaatdor korxona va tashkilotlar, sektor rahbarlari |
| | | 2. **3 ta** eksportchi korxonalar ro‘yxatini shakllantirish. | | 2022 yil avgust | | | |
| | | 3. Mazkur eksportchi korxonalarning **ishlab chiqarishdan – xorijiy xaridorgacha** bo‘lgan jarayonidagi muammolarini bartaraf etib borish. | | Doimiy | | | |
| | | 4. Har **yil**i shaharning eng salohiyatli mahalliy korxonalarni tashqi bozorlarga chiqishiga yo‘l ochib berish maqsadida **“Tadbirkordan – Eksportchigacha”** tamo**yil**i asosida **har bir korxona uchun alohida dastur** ishlab chiqish. | | 2022 yil noyabr | | | |
| **29-maqsad: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish** | | | | | | | |
| 16. | **126-band:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqot”** tadbirini o‘tkazish. | Har **yil**i “**20 avgust – Tadbirkorlar kuni**” doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqot”** tadbirini o‘tkazish.<br>Bunda:<br>“Ochiq muloqot” davomida bildirilgan takliflarni amalga oshirish yuzasidan “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash;<br>shahar bo‘yicha aniq rejalar va erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilab olish;<br>yangi tashabbuslarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, tadbirkorlarning fikr-mulohazalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi loyihasiga takliflarni viloyat hokimligiga kiritish,<br><br>Yo‘l xarita ishlab chiqish va tasdiqlash | 2021 yil avgust | – | Shahar hokimi o‘rinbosarlari **O.Raxmatov, A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi **Sh.Abduqodirov** |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 17. | **127-band:**<br>Hududlarda yangi **sanoat zonalari**ni tashkil etish. | Shaharda sanoat zonalarini tashkil etish. Bunda:<br>sanoat zonalariga salohiyatli korxonalarni joylashtirish;<br>elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlari va yo‘l infratuzilmasi yetkazib berishni to‘liq Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirish | Shahar amaliy chora-tadbirlar loyihasini tayyorlash va tasdiqlash | 2022 yil oktyabr | Hisob kitoblar asosida **24,5 mlrd. so‘m** | Shahar hokimi o‘rinbosari **A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi **Sh.Abduqodirov** |
| 18. | **129-band:**<br>**Sharoiti “og‘ir” bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish** uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish. | Sharoiti “og‘ir” bo‘lgan mahallalarda 2025 yil 1 yanvargacha yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik sub’ektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz stavkada hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to‘lash tizimini joriy etish. | Qonun loyihasiga takliflarni Viloyat hokimligiga kiritish | 2022 yil oktyabr | - | Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **O.Raxmatov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Moliya boshqarmasi **B.Qobilov,** Davlat soliq inspeksiyasi **O.Jo‘raqulov** |
| 19. | **132-band:**<br>Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, **ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini** takomillashtirish. | Shaharda tadbirkorlikka ko‘maklashadigan tuzilmalar negizida **Tadbirkorlar kengashi**ni tashkil etish.<br>Bunda:<br>Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, Davlat xizmatlari agentligi markazi hamda boshqa davlat organlarining bir-birini takrorlovchi, samarasiz va deklarativ funksiyalarni bekor qilish;<br>boshqaruv vertikali hamda o‘zaro hamkorlikda ishlash bo‘yicha aniq vazifalar taqsimotini ishlab chiqish;<br>yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur vakolat va mexanizmlarni aniq belgilab berish;<br>mahallalardagi “**hokim yordamchilari” bilan o‘zaro samarali hamkorlik tizimini** yo‘lga qo‘yish. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasiga takliflarni Viloyat hokimligiga kiritish | 2022 yil may | Hisob-kitoblar asosida | Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **O.Raxmatov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Adliya bo‘limi **S.Safarov,** Davlat xizmatlari agentligi markazi **G‘.Turdiev,** Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi **Sh.Sharipov** |
| **33-maqsad: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish** | | | | | | | |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 20. | **150-band:**<br>**14 ta** hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish. | Shaharning muammo va imkoniyatlari o‘rganib, **“o‘sish nuqtalari”**ni belgilab olgan holda **2022-2026 yillarga mo‘ljallangan shahar dasturlarni** ishlab chiqish. Bunda:<br>Shaharni iqtisodiy rivojlantirish hamda ichki imkoniyatlaridan optimal foydalangan holda aniq reja va loyihalar shakllantirish;<br>loyihalarning moliyalashtirish manbalarini aniq belgilab, qisqa muddatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;<br>loyihalarni amalga oshirishda samarali monitoring tizimini o‘rnatish. | Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalariga takliflarni Viloyat hokimligiga kiritish | 2022 yil fevral | – | Shahar hokimining o‘rinbosarlari **O.Raxmatov, A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov**, Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi **Sh.Abduqodirov,** tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 21. | **151-band:**<br>Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlari **“qoniqarsiz” bo‘lgan shahar va tumanlar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini** ishlab chiqish va amalga oshirish. | Shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reytingini keng joriy qilish. Bunda:<br>statistik ko‘rsatkichlar va so‘rovnomalar natijalari asosida shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash;<br>ijtimoiy-iqtisodiy past rivojlangan hududlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish. | Tahliliy ma’lumotnoma, shahar chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash | Har yil iyun oyida | – | Shahar hokimining o‘rinbosarlari **O.Raxmatov, A.Asrorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov**, Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi **Sh.Abduqodirov,** Shahar statistika bo‘limi, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 22. | **160-band:**<br>Shaharlar va qishloq aholi punktlarining **shaharsozlik hujjatlari** bilan ta’minlash dasturini ishlab chiqish. | 1. Shahar aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlanganlik holatini tahlil qilish.<br>2. Shahar aholi punktlarining mavjud shaharsozlik hujjatlarini o‘rganib chiqib, tuzatish va o‘zgartirish kiritish zaruriyatini aniqlash.<br>3. Xatlov va tahlil natijalari asosida shahar aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash dasturini shakllantirish bo‘yichaishlab chiqiladigan tegishli qaror loyihasiga taklif kiritish.<br>4. Tasdiqlangan dastur asosida shahar aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish. | Shaharsozlik dasturlariga takliflar ishlab chiqish va Viloyat hokimligiga kiritish | 2022 yil I chorak<br>2022 yil II chorak<br>2022 yil III chorak<br>Reja-grafik asosida | Byudjet mablag‘lari | Shahar hokimining o‘rinbosari **O.Shodiyev** | Qurilish bo‘limi **M.Xoliqulov,** Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,** Moliya bo‘limi **B.Qobilov,** tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 23. | **162-bandi:**<br>**Renovatsiya va uy-joylar dasturlari** asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga **19 mln** kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, **275 ming**dan ziyod oilani yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish.<br>. | **1991 yil**gacha qurilgan eski uylarni xatlovdan o‘tkazish hamda instrumental o‘rganish natijalariga ko‘ra renovatsiya qilish ishlari amalga oshirish. Bunda uylarning tarixiy va madaniy ahamiyatini alohida o‘rganib chiqish. | Manzilli ro‘yxat shakllantirish | 2022 yil mart | Loyiha-smeta hujjatlari asosida (mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan, tijorat banklari kreditlari, tadbirkorlik sub’ektlari mablag‘lari) | Shahar hokimining o‘rinbosari **O.Shodiyev** | Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi **N.Toshpo‘latov**, Qurilish bo‘limi **M.Xoliqulov,** Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov**, Moliya bo‘limi **B.Qobilov**, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| **34-maqsad: Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish** | | | | | | | |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 24. | **163-band:** **“Obod mahalla”** dasturi doirasida mahallalarning “o‘sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish. | **2022 yil**da shahardagi **2 ta** mahallaning arxitektura qiyofasini tubdan yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish va aholi turmush darajasini oshirish.<br>Bunda:<br>Dasturlar doirasida mahallalar ro‘yxatini shakllantirishda e’tibor qaratiladigan mezonlar:<br>olis va tabiiy iqlim sharoiti og‘ir hududda joylashganligi;<br>Xalq qabulxonalari va shahar hokimligiga kelib tushgan murojaatlar soni;<br>aholi va tadbirkorlar o‘zlari istiqomat qilayotgan (joylashgan) hududni birgalikda obodonlashtirish yuzasidan tashabbuslarining mavjudligi;<br>“**Turizm mahallasi**” maqomiga egaligi. | Shahar amaliy chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash | 2022 yil davomida | **“Obod mahalla”** dasturi doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobidan **48,2 mlrd. so‘m** | Shahar hokimining o‘rinbosari **O.Shodiyev** | Shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,**<br>Shahar Moliya bo‘limi **B.Qobilov**,<br>Shahar Qurilish bo‘limi **M.Xoliqulov** |
| | | 2. Dasturlar doirasida tanlangan mahallalar ro‘yxatini viloyat hokimliklari rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda amalga oshiriladigan qurilish-ta’mirlash ishlarini taqdimot shaklida e’lon qilish. | | | | | |
| | | 3. Shahar hokimligi, mutasaddi tashkilotlar hamda fuqarolar yig‘ini bilan hamkorlikda dasturlarga kiritiladigan qishloq va mahallalarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar va talab etiladigan taxminiy qiymatini aniqlash. | | | Hisob-kitoblarga asosan | | |
| 25. | Shahar markazini obodonlashtirish. | Bunda:<br>shahar markazini obodonlashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning manzilli ro‘yxatini belgilash;<br>shahardagi markaziy ko‘chalarni ta’mirlash, piyodalar va velosiped yo‘laklarini barpo etish;<br>ob’ektlarda ishlarni sifatli va o‘z muddatida tashkil etish nazarda tutiladi. | Shahar amaliy chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash | 2022 yil mart<br><br>2022 yil noyabr | Respublika byudjeti mablag‘lari **3,8 mlrd.so‘m** | Shahar hokimining o‘rinbosari **O.Shodiyev** | Shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,**<br>Shahar Moliya bo‘limi **B.Qobilov**,<br>Shahar Qurilish bo‘limi **M.Xoliqulov** |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 26. | Yangi ijtimoiy soha va infratuzilma ob’ektlarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash hamda moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash. | Bunda, joriy yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida:<br>**1 ta** maktabni rekonstruksiya qilish va<br>**1 ta** maktabni mukammal ta’mirlash;<br>**1 ta** sog‘liqni saqlash ob’ekti uchun qo‘shimcha blok qurish;<br>**1 ta** madaniyat va san’at ob’ektini yangidan qurish;<br>**1 ta** umumiy foydalanishdagi yo‘llarini rekonstruksiya qilish;<br>**2 ta** boshqa yo‘nalishdagi ob’ektlarida qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirilishi nazarda tutiladi. | Shahar amaliy chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash | 2022 yil davomida | Respublika byudjeti mablag‘lari **4,8 mlrd.so‘m** | Shahar hokimining o‘rinbosari **O.Shodiyev** | Shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi N.Nurmanov,<br>Shahar Moliya bo‘limi **B.Qobilov**,<br>Shahar Qurilish bo‘limi **M.Xoliqulov,** shahar hokimligi |
| 27. | **165-bandi:**<br>Shahar aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini **89,5 foizga** yetkazish, shahar markazida oqova suv tizimlari yangilash. | Markazlashgan ichimlik suvi bilan qisman ta’minlangan **1 ta** va markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan **2 ta** mahalla fuqarolar yig‘inlarida loyiha takliflar ishlab chiqish.<br>Bunda shaharning 5 ming **nafar** aholisi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanadi. | Loyihaga takliflar tayyorlash va tegishli vazirlik (idoralarga) kiritish *(har bir hudud bo‘yicha)* | 2022 yil mart | Respublika byudjeti mablag‘lari | Shahar hokimining o‘rinbosari **O.Shodiyev** | Shahar Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi **N.Toshpo‘latov**,<br>“Navoiysuvta’minoti” MChJ shahar bo‘limi **Z.Tursunov,**<br>xalq deputatlari shahar Kengashi |
| 28. | **168-band:**<br>Hududlarda **xizmat ko‘rsatish va servis sohalari**ni rivojlantirish orqali keyingi **5 yil**da xizmat ko‘rsatish hajmini **3 barobarga** oshirish. | Servis sohasini rivojlantirishning **5 yillik** maqsadli ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, **2022 yilda** xizmatlar hajmini **1,5 baravar**ga oshirish, **364** yangi ish o‘rinlarini yaratish va servis ob’ektlarini tashkil etish dasturni amalga oshirish. | Shahar chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash | 2022 yil | Hisob-kitoblarga asosan **13,0 mlrd.so‘m** | Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **O.Raxmatov** | Shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov,**<br>tegishli korxona va tashkilotlar |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 29. | **169-band:**<br>Shahar markazida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan **maishiy va kommunal xizmatlar**ni rivojlantirish bo‘yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’mirlash, keytring kabi xizmatlarni ko‘rsatish punktlarini rivojlantirish.<br>Shu jumladan, **2022 yil**da shaharda kamida bittadan zamonaviy xizmat ko‘rsatish punktlarini tashkil etish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi hududiy chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash:<br>oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari orqali xizmat ko‘rsatish punktlarini tashkil etish loyihalarini qo‘llab quvvatlash;<br>o‘zini o‘zi band qilish tizimidan ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolarni xizmat ko‘rsatish punktlariga jalb etish orqali ular uchun qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish;<br>kasb-hunar markazlarida ushbu yo‘nalishlarni tamomlab (elektrik, santexnik, ta’mirlash) xizmat ko‘rsatish punktlarida faoliyat olib bormoqchi bo‘lgan fuqarolarga asbob-uskuna sotib olishi uchun subsidiya ajratish. | Shahar chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash | 2022 yil fevral | – | Shahar hokimining o‘rinbosarlari **O.Raxmatov, O.Shodiyev** | Shahar Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi **N.Toshpo‘latov**, Shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov** |
| 30. | **171-band:**<br>Servis sohasida **yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish.** | Tadbirkorlikka qo‘shimcha qulayliklar yaratish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish. Bunda:<br>xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb qilgan holda, kuzatilmaydigan (yashirin) iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish.<br>Norasmiy bandlik darajasini qisqartish uchun sohalar bo‘yicha manzilli ishlash, norasmiy faoliyat yuritayotgan sub’ektlarni rasmiy sektorga jalb qilish maqsadida rag‘batlantiruvchi mexanizmlar orqali yashirin iqtisodiyotdan olib chiqish. | Amaliy chora-tadbirlar loyihasini tayyorlash va tasdiqlash | 2022 yil aprel | Talab etilmaydi | Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **O.Raxmatov** | Shahar davlat soliq boshqarmasi **O.Jurakulov,** shahar Moliya bo‘limi **B.Qobilov,** shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi **N.Nurmanov** |
| **35-maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 600 ming nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 50 ming nafarga yetkazish** | | | | | | | |
| 31. | **174-band:**<br>Ichki turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali **2026 yil**da “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar soni **12 mln nafardan** oshirish. | 1. Shaharda turizm salohiyatiga oid **targ‘ibot materiallarini tayyorlagan** holda ommaviy axborot vositalarida yoritish va **infoturlar** tashkil qilish.<br>2. Mahalliy sayyohlari sonini **2022 yil**da **5 ming** nafarga yetkazish. | Amaliy chora-tadbirlar loyihasini tayyorlash va tasdiqlash | 2022 yil davomida | - | Shahar hokimi o‘rinbosarlari **M.Mansurov, U.Ergashev** | Turizm va sport bo‘limi **T.Salohiddinov, R.Ortiqov** |

| T/r | Farmoning tegishli bandlari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalash-tirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
